ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 10

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
TerDU

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 10

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Intensivlik va darajalanish munosabati 7

ТОЖИЕВ ОЛИМЖОН МУЙДИНОВИЧ
Ўзбек тилида равиш/сифат типидаги лексемаларда мазмуний синкретизм 12

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – hissiyotlar ifodalash vositasi 16

MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O‘G‘LI
Shaxs nomlarining lug‘aviy qatlamdagi o‘rni va tavsifiy belgilari 21

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Ingliz tili biznes diskursida dunyoning paremiologik manzarasi.....24

JO‘RAYEVA NASIBAXON GANIYEVNA
Tarixiy romanlar diskursida so‘zlarning
o‘zaro ma’no munosabatlari 29

RO‘ZIMATOVA DILNOZA MURODOVNA
Ijtimoiy maqomning sotsiolingvistik talqini 32

ZAYNUTDINOVA GULNOZA ANVARJON QIZI
Presedent birliklar va turg‘un birikmalarning
badiiy matndagi poetik ahamiyati (Shuhrat Orif ijodi misolida).....37

VASLIDDINOVA KAMOLA QODIRJON QIZI
Korpus platformalarining til tadqiqotidagi amaliy ahamiyati.....42

НАРМУРОДОВА ДИЛФУЗА АБДУХОЛИК КИЗИ
Типологические и генетические характеристики
терминосистемы civil engineering/строительство 46

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Phraseological units with clothing components in english language.....49

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Muxammaslarda ijtimoiy muammolar tasviri.....51

СМАМУТОВА ШИРИН АЗАТБАЕВНА
Қазіргі қазақ-қарақалпақ прозасындағы әдеби байланыстар.....54

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий рубоийнавис шоир.....57

ГАСЫМОВА СЕВИНДЖ АШУР КЫЗЫ
Традиции праздника новруз в Азербайджане.....60

NADIM MUHAMMAD HUMAYUN
Alisher Navoiying «Hayratul-abror» dostoniga ishlangan «Hammomdagi uchrashuv» miniatyurasiga sharh va Navoiy qurdirgan ba'zi inshootlar.....66

JUMAYEV ILHOM HAMROYEVICH
O'zg'urmish – komil zohid timsoli.....71

КЕНЖЕБАЕВА РОЗА САЙЛАУОВНА
Фариза оңғарсынова және қарақалпақ Ақын-жазушылары арасындағы достық әдеби байланыс.....78

ALIYEVA ORZIGUL
Abdulla Oripov va Shavkat Rahmonning olam hamda insonga munosabatidagi o'ziga xoslik.....81

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ALISHER NAVOIYING «HAYRATUL-ABROR» DOSTONIGA ISHLANGAN «HAMMOMDAGI UCHRASHUV» MINIATYURASIGA SHARH VA NAVOIY QURDIRGAN BA'ZI INSHOOTLAR

Nadim Muhammad Humayun,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo'ycha falsafa doktori

Alisher Navoiy va Temuriylar davri me'morchiligi, naqqoshlik san'ati ular yashagan davr miniatyura manbalarida ham o'z aksini topgan. Misol uchun professor Hamid Sulaymonov tomonidan 1970-yilda «Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar» albomi nashr ettirilgan bo'lib, ushbu albomda buyuk shoirning «Hayratul-abror»iga ishlangan miniatyuralar ichida Sulton Muhammad Xorazmshohning imom Faxriddin Roziy bilan hammomdagi suhbati aks ettirilgan miniatyura ham mavju[1]. Miniatyura Navoiy davrining mashhur rassomi Kamoliddin Behzod tomonidan ishlangan bo'lishi mumkin. Mazkur maqola ushbu miniatyuraga sharh sifatida yozilgan.

Miniatyuraga sharh berishdan oldin sulton Muhammad Xorazmshoh va imom Faxriddin Roziy o'rtasida hammomda bo'lib o'tgan suhbat nima haqida ekanligiga qisqacha to'xtab o'taylik: bu suhbatda har ikki allomaning hammomda do'stlik shamini yoqqanlari va imomning so'zi bilan sultonning takabburlikdan voz kechgani haqida yozilgan. «Dunyodagi barcha dindorlarning imomi Faxriddin Roziy Xorazmni o'ziga oromgoh qilganida uni ko'rishga Xorazmshoh kelmaydi. Shoh qilgan ishidan hijolat chekib, imom bilan uchrashishga imkon izlaydi. Kunlarning birida Roziyning hammomga tushganini bilib, Xorazmshoh ham o'sha hammomga boradi. Ular bir biri bilan ko'rishib, shoh unga ochilib shunday savol beradi: «Ey, o'z ilmi bilan elni bahramand etgan, qiyomat ishlaridan bir xabar berchi. U kuni qanday mashaqqatlar yuz beradi, har bir kishining ahvoli nima bo'ladi?». Shoh shunday ma'noli savolni berganida kamolot egasi shu zailda javob beradi: «Ey, qiyomat kunini bilishni orzu qilgan odam, qiyomat haqidagi savolga eng monand joy shu hammomdir. Bu yerda shoh bilan gado bir xil ahvolda, shohu gado barchasi yalong'och yuradi. Amaldorlar, kattalar hammasi senga o'xshab, ichkariga kirgach, boru yo'g'i tashqarida qoladi. Ilmu hunar egalari esa menga o'xshab nima yiqqan bo'lsa o'zi bilan olib kiradi, vassalom».

Mazkur miniatyurada rassom nafaqat sulton Xorazmshoh va imom Faxriddin Roziyning hammomda qurgan suhbatini, balki Navoiy davrida qurilgan hammomlar xonasining interyeri va ularning devoriga ishlangan naqshlarni ham aks ettirgan. Ushbu miniatyura bizga Navoiy davri hammomlarining me'moriy tuzilishi va naqshu-nigorlari haqidagi tushunchalarimizni boyitishga va ular haqida fikr yuritishga imkon beradi.

Umuman olganda, hammomlar Islom mamlakatlarida Navoiy davrigacha ham ko'plab qurilgan. Hammom, garmoba, shifoxona, dorixona, obzan kabi imorat va qurilmalar xalq manfaati va sog'ligiga xizmat qiluvchi gigiyenik, davolash – shifobaxsh muassasalar qatoriga kirgan. Ma'lumki Alisher Navoiyning yirik davlat arbobi, Xuroson mulkining nufuzli amiri sifatida amalga oshirgan xayrli ishlari o'zining zamonidan boshlab bugunga qadar tillarda doston bo'lib kelmoqda.


Odamiy ersang demagil odami,
Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

– degan shoir, shunchaki, bu so'zlarni faqatgina boshqalarga o'git va nasihat sifatida aytmagan edi, balki u hammadan oldin bu pand-nasihatni o'ziga o'rnak va dasturulamal qilib oldi. G'iyosiddin Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Zaynuddin Vosifiy, Faxriy Hiraviy[2], Som Mirzo kabi mualliflar Alisher Navoiy tomonidan bugungi Afg'oniston va Eron hududlarida 370 dan ortiq xayriya binolar qurilganini qayd etganlar. Bular xonaqoh, hammom, jome' masjid, dorushshifo, madrasa, rabot (90ta)[3], hovuz (20 ta), ko'prik

[1] Sulaymonov H. Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar. Albom. –Toshkent, 1992.

[2] Faxriy Hiraviy Sulton Muhammad. Latoyifnoma (Tarjumai Majolisulnafoisi A.Navoiy), tahqiq va tas'hihi Hodiy Baydakiy. – Tehron: Intishoroti Dr. M. Afshor, 1398/20019.

[3] Som Mirzo Safaviy. Tuhfai Somiy, bo tas'hih va muqobalai Vahid Dastgardiy. –Tehron: Matbaai Armag'on, 1314/1935.



(15 ta) va o‘tgan ulug‘vor shaxslar mazorlari ustiga qurilgan binolar hamda Hirot jome’ masjidining asosiy ta’miridan iboratdir[1].

Mazkur inshoot jumlasidan Afg‘oniston hududida hozirga qadar saqlanib qolganlari shulardan iborat: 1. Hz. Adulvalid Ahmad ibni Rijo (rah.) qabrining gumbazi (Hirot), 2. Hz. Mir Abdulloh-al-Vohid Shahid qabrining imorati (Hirot), 3. Sayyid Abdulloh ibni Muoviya ibni Ja’fari Tayyor mazorining imorati (Hirot), 4. Hirot Guzargohida Namakdon va Bog‘chai noju imorati, 5. A. Navoiy tashabbusi bilan 1499-yili asosiy ta’mirlangan Hirot Jome’ masjidi, 6. Hirot Ziyoratgoh Jome’ masjidi, 7. Hirot shahri g‘arbida joylashgan Ulvor qishlog‘idagi masjid, 8. Hirotga qarashli Jom tumaninig Xarjird qishlog‘ida joylashgan Mir Qosim mazorining imorati, To‘s (Mashhad) va Hirot o‘rtasida yerlashgan «Sangbast» raboti, 9. Afg‘oniston Saripul viloyatida Juzjonon ko‘prigi, 10. Hirot darvozasi tomonida joylashgan G‘o‘r qishlog‘idagi hovuzki, hozir ham Alisher hovuzi deb ataladi, 11. Foryob viloyatiga

[1] Xondamir G‘iyosuddin. Makorum ul-axloq (Sharhi ahvol va zindagoniyi Amir Alisher Navoiy), muqaddima, tas’hih va tahqiqi M.Akbar Ashiq. –Tehron: Oyinai meros, 1378/1999.

tegishli Andxoy tumanida «Andxoy hovuzi»[1]. Ushbu inshootdan Juzjonon ko‘prigi katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Juzjonon Xurosonning qadimiy shaharlaridan bo‘lib, buyuk sarkarda Abumuslim Xurosoniy shu yerda dunyoga kelgan. Zamon zayli bilan qadim Juzjonon keyinchalik Anbor yo Anbir nomi bilan atala boshlagan. Xuroson daryosi ushbu mintaqani sharqan va g‘arban ikki bo‘limga ayirganligi bois, Sulton Husayn Boyqaro hokimiyati davrida Anborning sharqiy va g‘arbiy mintiqalrini bir-biriga bog‘lash uchun katta ko‘prik qurishga qaror olingan. Mazkur ko‘prik podshohning buyrug‘i va ulug‘ amir Alisher Navoiy tashabbusi bilan asosiy va puxta shaklda bunyod etilgan. Shundan keyin Anbor shahri Saripul (forschada – *ko‘prik boshi* ma’nosida) nomi bilan atala boshlagan. Ushbu ko‘prik haqida hijriy 1355 (milodiy 1976)ga qadar folklorik ma’lumotlar mavjud edi. Unga ko‘ra, aholi ushbu ko‘prikning 500 yil oldin qurilganligini tasavvur qilardi va uning atrofidagi chinor daraxtlarni ham Mavlono Jomiyga nisbat berardilar. Lekin mashhur tarixchi Xondamirning Alisher Navoiy sharhi holi, ilmiy-adabiy va bunyodkorlik asarlari haqida yozgan «Makorim ul axloq» kitobining Britaniya muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozmasi ko‘rilgandan keyin, ushbu ko‘prik, «Puli Juzjonon» (Juzjonon ko‘prigi) bo‘lib, Mir Alisher Navoiyning xayriya inshootlari jumlasidan ekanligi ma’lum bo‘ldi[2]. Yana ulug‘ bobomiz bunyod etgan yodgorliklardan Andxoy hovuzi ham hozirgacha saqlanib kelmoqda. Mazkur hovuz Andxoy Bobovaliy madarasasining sahnida joylashgan bo‘lib, o‘zining mavjudiyati davomida bir necha bor ta’mirlangan va kengaytirilgan, hozirgi ko‘rinishi bilan 22x22, chuqurligi 7 metr bo‘lib, sig‘imi 3388 kub metrga teng keladi. Andxoylik shoir rahmatli Muhammad Amin Matin ushbu ruboiy she’rida, o‘z ona diyori Andxoy va undagi tarixiy havuz haqida faxrlanib shunday deydi:

Vasfingga qalam, Andxoyim, til cho‘zgan,
Yaproq uza shuhrating yozib ko‘rguzgan.
Faxr etgali arzir obdoting, chunkim,
Bobovaliy havzini Navoiy tuzgan[3].

Eslatib o‘tganimizdek, qadim Xuroson va hozirgi Afg‘oniston hududida nafaqat ulug‘ amir Alisher Navoyning xayriya binolaridan ba’zisi bugunga qadar saqlanib kelmoqda, balki uning adabiy maktabi va ijodiy uslubi ham ushbu mamlakat o‘zbek qalamkashlari va shoirlari ijodida davom etib kelmoqda[4]. O‘tmishda qurilgan bunday hammomlarni shartli ravishda saroy hammomlari, bozor hammomlari va guzar hammomlariga bo‘lish mumkin[5] Saroy hammomlari hukumdorlarga xizmat qilib, ark – qal’alar va saroylar qoshida qurilgan bo‘lsa, bozor hammomlari keng jamoatchilikka mo‘ljallanib shahristonda bozorlar yonida qurilgan. Guzar hammomlari esa, odatda, mahalla markazlari, yani guzar imoratlari tarkibida joylashgan. Ba’zida shifoxona va karvonsaroylar qoshida ham hammmomlar qurilgan. Alisher Navoiyning Hirot shahri tashqarisida «Shifoiya» shifoxonasi yonida qurdirgan «Safo» hammomi ana shunday hammomlar qatoriga kirgan[6]. Navoiy ushbu hammomdan boshqa Xuroson hududida yana bir qancha hammomlar qurdirgan[7]. Hammomlarda yechinish – kiyinish xonasi, choyxona, iliq xona, umumiy yuvinish xonasi, issiq xona, sovuq xona, massaj(o‘qalanish) xonasi, issiq va sovuq suv saqlanadigan xonalar va olovxona bo‘lgan. Hammomlardagi xonalar tarkibi hammomning funksiyaviy taalluqligiga qarab o‘zgarib turgan. Shohona saroy hammomlarida xonalar tarkibi ko‘proq, guzar hammomlarida kamroq bo‘lgan. Navoiyning «Hayratul – abror» dostoniga ishlangan miniatyurada, fikrimizcha, hammomning umumiy yuvinish xonasi va issiq xona tasvir etilgan bo‘lib, unda yuvinuvchilardan biri hammomning ichki issiq suv xonasi devoriga ishlangan uchta kichik ravoqchalardan biri orqali ushbu xona orqasida joylashgan issiq suv xonasidan suv olmoqda.

Xona izorasi, ya’ni devorning polga tutashgan pastki qismi olti burchakli moviy rangdagi koshin naqshlar bilan qoplangan. Izora naqshi va ravoqchalar atrofi islimiy naqshlar bilan hoshiyalangan. Ravoqchalar usti esa yirik hajmdagi girih naqshlar bilan bezatilgan. Hammom eshigining ustiga kitoba ishlangan bo‘lib, uning usti o‘simliksimon shakldagi islimiy bezaklar bilan naqshlangan. Hammom ichidagi katta ravoq qanoslariga qadimiy Sharqning farishta qush–Anqoning tasvirlari ishlangan bo‘lib, ularning atrofi o‘simliksimon naqshlar bilan bezatilgan.

Hammomlarda tirik jonzotlarni, jumladan qushlar ramzida ifodalangan jannat farishtalarning tasvirini o‘rta asrlarda ishlangan boshqa sharq miniatyuralarida ham uchratish mumkin. Masalan, Nizomiy asarlariga ishlangan miniatyuralarning birida ham jannat farishtalarining tasvirini ko‘rish mumkin. Bu yerda

[1] Fikriy Saljuqiy. Abdur Rauf. Amir Alisher va osori umroniy u // Dar majmuai “Amir Alisher Navoiy Foniy (Mushtamil bar sharhi zindagoniy, osori umroniy, muallafot va namunai nazm va nasri u”, ba kushishi M. Ya’qub Vohidiy Juzjoniy. – Kobul: Anjumani tarix, 1346/1965. – ss. 35-64.

[2] Vohidiy, Muhammad Ya’qub Juzjoniy, Bayoniy jamg‘armasi sayti: (http://bayanifoundation.blogfa.com/post-212.aspx)

[3] Matin Muhammad Amin Andxoiy. Murure bar nabishtahoi ro‘yi devor, chopi 2. Mazori Sharif: 1390/2011.

[4] Лабиб См, Надим Мх. Alisher navoiyning xurosonda qoldirgan izlari va adabiy an’anasining davomi. Международный журнал Алишера Навои. 2023 Apr 18;3(1).

[5] Uralov A.S. Bani–xammam v zodchestve Sentralnoy Azii.– Samarkand: SamGU, 2003.

[6] Пугаченкова Г.А. Восточная миниатюра как источник по истории архитектуры ХВ-ХВИ –вв. //Архитектурное наследии Узбекистана. – Ташкент, 1969.

[7] Axmedov B. Xondamir. – Toshkent, 1965.



ham ular hammomning yuvinish zali interyeriga ishlangan[1]. Gap shundaki, o‘rta asr Islom sharqi xalqlarida jannat farishtalari orastalik va soflikni, orastalik esa, o‘z navbatida, tozalik, go‘zallik va halollik ramzi tarzida ifodalangan[2]. Shu boisdan Sharq rassomlari farishta qushlar tasvirini boshqa miniatyuralarda ham ifodalashgan. Biroq, keyinroq Islom me’morchiligi va tasviriy san’atida tirik jonzotlarni monumental tarzda tasvirlash man etilganligi sababli, ularni tasvirlash hammomlarda ham kuchdan qolgan va faqat saroy va ba’zi jamoat hammomlaridagina ornamental naqshlar qo‘llanilgan, oddiy hammomlarda esa naqshlar umuman qo‘llanilmagan yoki kam ishlatilgan. Navoiy asariga ishlangan mazkur miniatyuraning yuqori qismida (rasmga qarang) hammom gumbazi ko‘rsatilgan bo‘lib, uning ustida hammomga yorug‘lik tushadigan sakkiz burchakli gardish o‘rnatilgan. Miniatyuraga e’tibor berib qarasangiz, hammomda yuvinayotganlarning barchasi beliga «lungi» (ovratni yopib turuvchi gazmol) o‘rab olishgan. Islomdagi odob aqidalariga ko‘ra hammomga kirganlarga ana shunday ikkita lungi berilgan. Ulardan biri badanni massaj (uqalatish) paytida supaga to‘shaladigan lungi, ikkinchisi ovratni yopishda qo‘llanadiganidir[3]. Bu yerda hammomda maxsus «xodimichi»lar, ya’ni massaj qiluvchilarning ishlashini ham eslatib o‘tish joizdir.

Alisher Navoiy o‘zining mangu asarlari va xayrli inshootlarining qoldiqlari bilan hozirgi kun XXI asrda ham biz bilan yashab kelmoqda va uning faxrli nomi bugun butun dunyoga tarqalgan va dunyoning muhim tillarida so‘zlashuvchilar uning qiymatli manzum

[1] Uralov A.S. Bani–xammam v zodchestve Sentralnoy Azii. – Samarkand: SamGU, 2003.

[2] Adam Mes. Musulmanskiy Renessans. – Moskva, 1966.

[3] Uralov A.S. Bani–xammam v zodchestve Sentralnoy Azii. – Samarkand: SamGU, 2003.

va mansur asarlarini o‘z tillarida o‘qib, oliy insonparvarlik andisha va fiklari bilan tanishadilar. Navoiyning qurdirgan obidalaridan ba’zilari hanuz ham uning tug‘ilib parvarish topgan va o‘lmas asarlarini yaratgan ona diyori Xuroson zaminida saqlanib kelmoqda, biroq zamona zayli bilan butunlay buzilib ketmasligi uchun avlodlari tomonidan muroqabat va muhofazatni talab qiladi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, rassom ushbu miniatyurada aynan Muhammad Xorazmshoh va Faxriddin Roziy cho‘milgan hammomni tasvirlamagan, balki o‘sha davr islom hammomlarining umumlashgan bir ko‘rinishini aks ettirgan. Nima bo‘lganda ham xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, biz mazkur miniatyuradagi Navoiy davrining ba’zi hammomlari buyurtma bo‘yicha g‘oyat hashamdor qilib bezatilganini, ularda qadimiy Shaqning farishta qushlari poklik va soflik, go‘zallik ramzlarida ifodalanganligini, Navoiy esa o‘zi qurdirgan hammomlarining biriga nima sababdan «Sofiya» deb nom berganligini tushunib olamiz.

Rezyume. Maqolada Alisher Navoiyning «Hayratul-abror» asarida bayon etilgan Sulton Muhammad Xorazmshohning imom Faxriddin Roziy bilan hammomdagi suhbatiga ishlangan miniatyura sharhlab berilgan va, shu munosobat bilan, Islom hammomlarining tuzulishi va bezaklarining qisqacha tahlili keltirilgan. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy qurdirgan hozirgacha Afg‘oniston hududida saqlanib qolgan inshoot, ko‘prik, suv havzalari, Hammomlar, ariq va kanallar, masjid va madrasalari haqida ham so‘z yuritiladi.

Resume. The article analyzes the miniature of the conversation between Sultan Khorezmshah and Imam Fakhriddin Raza in the bathhouse, which is shown in the work of Alisher Navoi «Hayratul-abrar» and thus brief description of the Islamic baths and their ornamentation is given. It is also mentioned about the structures, bridges, reservoirs, baths, ditches and canals, mosques and madrasahs built by the great thinker poet Alisher Navoi, which are still preserved in the territory of Afghanistan.

Резюме. В стате дан разбор миниатюры выполненной к теме беседы султана Хоразмшаха и имама Фахриддина Рази в бане, которая приводится в произведении Алишера Навои «Хайратул – аброр» и, в связи с этим, дана краткая характеристика исламских бан и их арнаментика. Упоминаются также о сооружениях, мостах, водоемах, банях, рвах и каналах, мечетях и медресе, построенных великим мыслителем поэтом Алишером Навои, которые до сих пор сохранились на территории Афганистана.